“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=335

2025-yil
11-son
noyabr
ISSN 3093-8546



Firma nomiga bo‘lgan mutlaq huquqni undan noqonuniy foydalanishdan himoya qilinishida sun’iy intellektning qo‘llanilishi istiqbollari

Maftuna Allayarova,
Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti
Huquqshunos
e-mail: hq@mail.ru

Аннотация. Mazkur tezisda intellektual mulkning iqtisodiyotdagi o‘rni, ushbu sohani yanada rivojlantirishga oid davlat dasturlari, intellektual mulk, jumladan, firmanomiga bo‘lgan mutlaq huquqni undan noqonuniy foydalanishdan himoya qilinishida sun’iy intellekt qo’llanilishi istiqbollari, firma nomidan qonunga xilof ravishda foydalanish uchun javobgarlik masalalari aks etgan.

Калит сўзлар.

Аннотация. В данном тезисе отражены роль интеллектуальной собственности в экономике, государственные программы по дальнейшему развитию данной сферы, перспективы применения искусственного интеллекта в защите интеллектуальной собственности, в том числе исключительного права на фирменное наименование, от его незаконного использования, вопросы ответственности за незаконное использование фирменного наименования.

Ключевые слова. интеллектуальная собственность, фирма, система, программное обеспечение, искусственный интеллект

Annotation. This thesis reflects the role of intellectual property in the economy, state programs for the further development of this sphere, the prospects for the use of artificial intelligence in protecting intellectual property, including the exclusive right to a company name, from its illegal use, and issues of responsibility for the illegal use of a company name.

Keywords. intellectual property, company name, system, software, artificial intelligence

Hozirgi kunda intellektual mulk iqtisodiyotda muhim hisoblanib intellektual mulk uning ajralmas qismiga aylangan. Prezidentimiz

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Shavkat Mirziyoyev “Jahon bozoriga chiqayotgan mahsulotlarimizda O‘zbekiston ovozi jaranglashi kerak, brendi bo‘lsagina mahsulotlarimiz tashqi bozorlarda mustahkam o‘rin egallay oladi”, — deya ta’kidlashi ham bejizga emas.[1]

Ma’lumot uchun “Brand Finance” statistikasiga ko‘ra iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar kompaniyalarining umumiy aktivlari 89,0 trln. AQSH dollarni tashkil etib, undan 46,8 trln. AQSH dollar (52,5 foiz) moddiy ko‘rinishdagi aktivlar, 41,9 trln AQSH dollari (47,0 foiz) esa nomoddiy aktivlar hisoblanadi.[2] Bundan ko‘rinib turibdiki, barcha mamlakatlarda yaratilayotgan intellektual mulk obyektlari iqtisodiyotda muhim o‘rin tutadi.

Rivojlangan mamlakatlarda intellektual mulk sohasini rivojlantirish va uning samaradorligini ta’minlash maqsadida qisqa muddatli va o‘rta muddatli strategiyalar va dasturlar qabul qilingan. Shuningdek, O‘zbekistonda 2022-yil 26-apreldagi “Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-221-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan “2022 — 2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini rivojlantirish Strategiyasi” qabul qilindi.[3] Ushbu strategiyaning bosh maqsadi sifatida O‘zbekistonda “Intellektual mulkning samarali huquqiy muhofazasidan — kuchli huquqiy himoyasi sari” prinsipiga asoslangan holda intellektual mulkni jamiyat va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini rivojlantirishga qaratilgan yo‘l xaritasi hisoblanadi. Bunda O‘zbekiston Respublikasining “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”, “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovarlarning kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”, “Firma nomlari to‘g‘risida” va “Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida”gi qonunlariga — intellektual mulk obyektlari egalariga zarar yetkazilishi faktidan qat'i nazar, huquqbuzarlikning xususiyati va huquqbuzarning aybi darajasini hisobga olgan holda, zarar qoplanishi o‘rniga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan ming baravarigacha miqdorda tovon undirish tartibini joriy etish masalasi qonun loyihasida ishlab chiqilishi belgilangan edi. So’ngi yillarda bu o’zgartirishlar qabul qilindi va qonunlarda o’z aksini topdi.

Firma nomi deganda tadbirkorlik subyektini fuqarolik muomalasida o‘zini tanishtiruvchi, boshqa ishtirokchilardan farqlovchi nomi tushuniladi. Shu sababli ham firma nomi subyekt huquqiga mos bo‘lgan holda korxonaning tashkiliy-huquqiy shaklini (AJ, ishlab chiqarish kooperativi), uning turini (davlat, jamoa, xususiy), faoliyat turini (ishlab chiqarish, savdo, ilmiy tadqiqot), korxona egasining shaxsini (misol uchun, Toyota, Ford) ifodalashi lozim.[4]

Firma nomida davlatning rasmiy nomi, xalqaro, hukumatlararo yoki nodavlat notijorat tashkilotining qisqartirilgan yoki to‘liq nomi; tarixiy yoki O‘zbekiston Respublikasida mashhur bo‘lgan shaxsning to‘liq yoki qisqartirilgan ismi, belgilangan tartibda beriladigan ruxsatsiz; firma nomining egasi, uning faoliyat turi yoki u kelib chiqqan mamlakat xususidagi soxta yoki iste’molchini chalg‘itishi

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

mumkin bo‘lgan belgilar; jamiyat manfaatlariga, insonparvarlik va axloq prinsiplariga zid bo‘lgan belgilar ko‘rsatilmasligi kerak.

O’zbekiston Respublikasining “Firma nomlari to’g’risida”gi Qonunining 4-moddasiga ko’ra firma nomida ilgari O‘zbekiston Respublikasida boshqa shaxs nomiga ro‘yxatdan o‘tkazilgan yoki ro‘yxatdan o‘tkazish so‘rab talabnoma berilgan, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq ro‘yxatdan o‘tkazilmay muhofaza qilinadigan tovar belgilari (xizmat ko‘rsatish belgilari) ko‘rsatilmasligi kerak. Qonunning 11-moddasiga ko’ra firma nomidan noqonuniy foydalanish firma nomiga bo‘lgan mutlaq huquqning buzilishi deb e’tirof etiladi.[5]

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9-fevraldagi 66-son qarori bilan tasdiqlangan “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizomning 11-bandiga ko’ra ariza beruvchi tomonidan firma nomini tanlash bir xilligining tekshirilishi tizim tomonidan avtomatik tarzda amalga oshiriladigan, lotin alifbosidagi erkin firma nomlaridan so‘rovnoma shakllantirilganda amalga oshiriladi.[6]

Ariza beruvchi u tomonidan firma nomi tanlanayotganda O‘zbekiston Respublikasining “Firma nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni, shuningdek yuridik shaxslar nomlari to‘g‘risidagi boshqa qonun hujjatlari talablariga rioya etmaganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

Ushbu xatti harakatlar sodir etilishi O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 177-moddasiga asosan O‘zganing tovar belgisidan, xizmat ko‘rsatish belgisidan, geografik ko‘rsatkichidan, tovar kelib chiqqan joy nomidan yoki adashtirib yuborish darajasida ular bilan o‘xshash bo‘lgan belgilardan shu turdagi tovarlarga (xizmatlarga) nisbatan qonunga xilof ravishda foydalanish yoxud o‘zganing firma nomidan qonunga xilof ravishda foydalanish, — huquqbuzarlik ashyolarini musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining o‘n besh baravaridan o‘ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.[7]

Shuningdek, O’zbekiston Respublikasining “Firma nomlari to’g’risida”gi Qonunining 12-1-moddasiga ko‘ra Firma nomidan qonunga xilof ravishda foydalanish yuridik shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Firma nomida ilgari O‘zbekiston Respublikasida boshqa yuridik shaxs nomiga ro‘yxatdan o‘tkazilgan yoki ro‘yxatdan o‘tkazish so‘rab talabnoma berilgan, ilgariroq ustuvorlikka ega bo‘lgan firma nomlari; ilgari O‘zbekiston Respublikasida boshqa shaxs nomiga ro‘yxatdan o‘tkazilgan yoki ro‘yxatdan o‘tkazish so‘rab talabnoma berilgan, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq ro‘yxatdan o‘tkazilmay muhofaza qilinadigan tovar belgilari (xizmat ko‘rsatish belgilari); belgilangan tartibda hammaga ma’lum deb e’tirof etilgan tovar belgilari (xizmat ko‘rsatish belgilari); belgilangan tartibda qonunchilik bilan muhofaza qilinadigan geografik ko‘rsatkichlar va tovar kelib

chiqqan joyning nomlari bilan, shunday ko‘rsatkichdan yoki nomdan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan shaxs nomiga ro‘yxatdan o‘tkazish hollari bundan mustasno, adashtirib yuborish darajasida bir xil yoki ularga o‘xshash bo‘lgan belgilar ham ko‘rsatilmasligi kerak.

Amaliyotda biz firma nomi va tovar belgisi kesishmasida muammolarga duch kelamiz. Davlat reyestridan ro’yxatdan o’tgan firma nomiga nisbatan tovar belgisining huquqiy himoyasida nizo kelib chiqishi mumkin. Bunda firma nomini ro’yxatdan o’tqazish jarayonida tizimda izlash jarayonida firma nomlarida o’xshashlik mavjudligi, bir xillik bor bo’lsa ariza rad etilishi nazarda tutilgan. Firma nomini tanlash bir xilligining tekshirilishi Tizim tomonidan avtomatik tarzda amalga oshiriladigan, lotin alifbosidagi erkin firma nomlaridan so‘rovnoma shakllantirilganda amalga oshiriladi.

Intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosatini Adliya vazirligi amalga oshiradi va u faoliyat jarayonida shu sohaga aloqador bo’lgan murojaatlarni ko’rib chiqadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ–3666- son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to‘g’risidagi nizomga asosan, adliya organlarining asosiy vazifalaridan biri sifatida intellektual mulk sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni noto’g’ri va ziddiyatli qo‘llash amaliyotini o’rganish, ushbu sohada huquqbuzarliklarni bartaraf etishga doir amaliy choralar ko‘rish, shuningdek, mazkur masalalardagi jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko’rib chiqish belgilangan. 2025-yil 9 oy davomida intellektual mulk masalalari bo’yicha 1065 ta murojaatlar kelib tushgan bo’lsa, undan Sanoat mulkiga aloqador murojaatlar 888 tani tashkil etgan va undan 634 ta murojaat qanoatlantirilgan. Bu murojaat ichida firma nomi bilan bog’liq nizolar ham ko’rib hal qilingan.

Intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofazalash uchun ularning “tozaligini” tekshirish va himoyalash doirasida sun’iy intellektni joriy etish va maxsus dasturiy ta’minotlarni yaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Shu munosabat bilan, ushbu yo‘nalish bo‘yicha Amerika Qo‘shma Shtatlari, Yaponiyaning sanoat Mulki obyektlari bo‘yicha sun’iy intellekt joriy etilgan xalqaro bazalari va maxsus dasturiy ta’minotlar o‘rganib chiqildi, quyidagilar aniqlandi.

AQSHning patent idorasi (USPTO) sun’iy intellektni davlat ekspertizasi jarayonida qo‘llaydi. Mashinali o‘rganish talabnomalar va hujjatlarni tahlil qilish, patent obyektlarining yangiligi, ixtiro darajasini aniqlashda, sanoat namunasi bo‘yicha o‘ziga xosligini tekshirish jarayonini avtomatlashtirish, shuningdek, mavjud patentlarni qidirishga yordam beradi. Shuningdek, USPTO tomonidan TMSearch mobil ilovasi joriy etilgan. Ushbu ilova orqali foydalanuvchilar tomonidan talabnoma topshirish, qidirish va sinflarni aniqlash imkoniyati yaratilgan.

Yaponiyaning patent qidiruv tizimi bibliografik ma’lumotlar va referat matnlar bilan qidirishga imkoniyat beradi. Undan tashqari

kalit so‘zlar bilan xalqaro chop etilgan manbalarda ham qidirish imkoniyati mavjud. Yaponiyaning patent tizimi sun’iy intellekt yordamida tovar belgilari va sanoat namunalari ekspertizasi jarayonida qo‘llaniladi.

Ushbu xorij mamlakatlaridagi bu amaliyot yordamida sun’iy intellekt orqali davlat xizmatlari asosida firma nomini davlat ro’yxatidan o’tqazish jarayonida ariza beruvchi tomonidan firma nomini tanlash bir xilligining tekshirilishi tizim tomonidan amalga oshirilishi yo’lga qo’yilishi kerak. Bunda firma nomida ilgari O‘zbekiston Respublikasida boshqa shaxs nomiga ro‘yxatdan o‘tkazilgan yoki ro‘yxatdan o‘tkazish so‘rab talabnoma berilgan, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq ro‘yxatdan o‘tkazilmay muhofaza qilinadigan tovar belgilari (xizmat ko‘rsatish belgilari) haqidagi ma’lumotlar sun’iy intellekt tomonidan ochiq ma’lumotlar bazalari orqali o‘xshash belgilar bilan solishtirish kerak.

Firma nomini yaratishda sun’iy intelekt yordamida kreativ nomni topish ya’ni nom generatori dasturiy ta’minot ishlab chiqilishi kerak. Shuningdek, ariza beruvchining firma nomini tahrir qilishda yordam berib yanada takomillashgan firma nomning tanlanishida tavsiya berishi yo’lga qo’yilishi kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekiston ekspertiza jarayonini takomillashtirish va huquqiy himoya yo‘nalishida sun’iy intellektni joriy etish maqsadida quyidagilar taklif qilinadi:

1. AQSH, Yaponiya tajribasini o‘rgangan holda milliy tizimni yanadan rivojlantirish, sun’iy intellektni joriy etish;

2. Mahsulotlarning asl nusxasini tekshirish va joyida ma’lumotlarga ega bo‘lish maqsadida mobil ilova yaratish;

3. Xususiy tadbirkorlar uchun firma nomini davlat ro’yxatidan o’tqazayotganda sun’iy intelekt yordamida yagona platforma yaratish va unda firma nomi va tovar belgisi o’rtasida nizo kelib chiqmaslik masalasi tahlil qilib tadbirkorga tavsiya berilishini yo’lga qo’yish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Prezident intellektual mulk muhofazasi bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi. https://www.gazeta.uz/oz/2020/10/12/intellectual-property/

Brand Finance Nation Brands 2017.http://brandfinance.com/who-we-are/our-story/.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi PQ-221-son “Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo’shimcha chora tadbirlar to’g’risida”gi Qarori. https://lex.uz/uz/docs/-5987120#-5988020

O. Oqyulov. Intellektual mulk huquqiy maqomning nazariy va amaliy muammolari. –T.: TDYU. 2004. 149-b.

O‘zbekiston Respublikasining «Firma nomlari to‘g‘risida”gi qonuni 18.09.2006 yildagi O‘RQ-51-son.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.02.2017 yildagi 66-son “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

qo‘yish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 2016-yil 28-oktabrdagi PQ-2646-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi.